

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA IJTIMOIY TARMOQLARDAN FOYALANISH

Mullajonov Baxodirjon Arabboyevich

Ilmiy tadqiqotchi, O'zbekiston jurnalistika va omimaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada axborot texnologiyalari fanidan talabalar bilan ishslash jarayonida ijtimoiy tarmoqdan foydalanishda e'tibor berish kerak bo'lgan jihatlar o'r ganib chiqilgan. Shuningdek ijtimoiy tarmoq turlari xam o'r ganilib, ular ichidan optimal variantlar tanlash bo'yicha kerakli tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Axborot texnologiyalari, mustaqil ta'lif, ijtimoiy tarmoq, media tarqatuvchi platformalar, sifatli kontent, youtube platformasi, heshteglar.*

Bugungi kunda texnologiyalari katta tezlik bilan rivojlanib bormoqda. Zamonaviy texnologik qurilmalarni ishlatalishda yoshni ahamiyati qolmadi. Maktab yoshidan boshlab, nafaqa yoshigacha barcha odamlarni qo'lida so'nggi rusumdagagi mobil qurilmalarni ko'rishimiz mumkin.

Texnologik qurilmalar rivojlanishi bilan bir qatorda, ijtimoiy tarmoqlar xam katta tezlik bilan rivojlanib bormoqda. Hozirda keng foydalanishda bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar dastlab yaratilganlariga nisbatan anchagina aqlli roq bo'lgan. Foydalanuvchiga kontent va reklama tavsiya qilishda uning shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanadi. Siz oldin ko'radigan videolaringiz yoki o'qiydigan postlaringizdan keyingi tavsiyalar berishda keng foydalanadi. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarini orasida turli yosh vakillari mavjud bo'lib, ularni qiziqishlari xam turfa xildir. Biz ilmiy ishlarda, o'qitishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalansak, auditoriyani qaysi yosh toifasiga tegishli va qiziqishlar qamrovi nimalardan iborat ekanligini inobatga olishimiz zarur.

Axborot texnologiya fani Respublikamizdagi deyarli barcha Oliy ta'lif muassasalarida o'tiladigan fan hisoblanadi. Bu fanni o'qitishda amaliy darslar kompyuterxonalarda maxsus dasturlarni o'rgatish bilan amalga oshirilinadi. Bu dasturlar bilan ishslashda talabalarda ko'proq ko'nikmalar hosil qilish uchun mustaqil ta'lifdan xam foydalanish kerak. Talabalar fanni to'liq o'zlashtirish uchun mustaqil ta'lif olishi xam kerak bo'ladi, bu uchun unga kerakli resurslarni to'g'ri tavsiya qilish kerak. Bunda tayyor resurslarni tavsiya qilish yoki fanni o'qituvchilarini tomonidan turli ijtimoiy tarmoqlarda mustaqil yuritiladigan maxsus kontentlar xam tavsiya qilinishi mumkin. Bunda ma'lumotlar turiga qarab, turli ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish mumkin:

- Qisqa text yoki rasm ko'rinishida bo'lsa Twitter ijtimoiy tarmog'i;
- Juda uzun text va ko'p muhokamalar kerak bo'lsa Facebook ijtimoiy tarmog'ida;
- Uzun soatlik miqdorda uzun video darslar ko'rinishida bo'lsa Youtube ijtimoiy tarmog'ida;
- Qisqa video ko'rinishida va 9:16 ekran o'lchamida kontent tarqatilinishi kerak bo'lsa instagram reels yoki youtube shortsdan foydalanish tavsiya etiladi.

Media tarqatuvchi platformalar orasida eng keng tarqalgani youtube platformasıdır. Har bir amaliy darslarni youtube platformasiga joylab borish o'qituvchiga xam talabalarga xam qo'shimcha qulayliklar beradi:

- O'qituvchi har bir darsini o'tib bo'lib, talabalarga ijtimoiy tarmoqqa joylangan videodars linkini taqdim etish orqali, darsga qatnashmagan talabalarga darsni yetkazish;
- Darsga sababli holda qatnasha olmagan talabalar ijtimoiy tarmoqda joylangan videodarsni ko'rish orqali darsni o'zlashtirib olishi;
- Imtihonga yaqin muddat qolganida talabalarni imtihonga tayyorgarlik qilish uchun resurslarni mavjud ekanligi;
- Ijtimoiy tarmoqdagi ochiqlik siyosati tufayli bu videodarslardan boshqa universitet talabalari xam mustaqil ta'lif sifatida bemalol foydalanish mumkinligi;

Videodarslar uchun eng optimal ijtimoiy tarmoq sifatida youtube media tarqatuvchi platformasini tavsiya qilinishiga asosiy sabablar quyidagilar:

- Kontent qo'yib boruvchi o'qituvchi va kontent kuzatuvchi talabalar uchun juda qulayligi;
- Analitikasi juda kuchli ishlab chiqilgan;
- Qulay, samarali va ko'p qirrali;
- Eng mashhur mediatarqatuvchi platforma;
- Asosiysi hamma uchun tekin.

Youtube platformasida kontent qo'shimcha ommalashish imkoniyati xam bor. Sifatlari kontent yaratish va muallifni doimo faollikda ish olib borishi youtube kanalni tez ommalashib ketishiga xam olib keladi. Kuzatuvchilar tomonidan videoni ko'rish davomiyligi yuqori bo'lsa, youtubeni o'zi bu videoni boshqa kuzatuvchilarga tavsiya qila boshlaydi. Bunday videodarslarni o'zbek segmentida ko'payishi, youtube platformasidagi umumiy kontentni sifatini o'sishiga olib keladi.

Youtube platformasida videodarsni yuklash jarayonida videoni turli xil ko'rinishda yuklash imkoniyati mavjud. Video hamma uchun ochiq qilib yoki maxsus link yordamida kiriladigan qilib yuklash imkoniyati bor. Bunda videodarslarni boshqalarga tarqab ketmasligini o'ylab, link orqali kiradigan qilib yuklab, talabalarga linklar berish orqali tarqatish imkoniyati xam mavjud. Lekin bunda videodarslar ommalashmaydi. Videolar hammaga ochiq va ko'proq odamga tarqalishi reja qilinsa video ochiq qilib youtube platformasiga yuklanadi. Bunda talaba tomonidan to'liq ko'rilgan videodarslar boshqa youtube kuzatuvchilariga xam tavsiyaga chiqa boshlaydi. Shuni orqali videodarslarini ijtimoiy tarmoqqa joylab boruvchi o'qituvchini xam ijtimoiy tarmoqdagi sahifasi xam rivojlanib ketadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Airoldi, M, Beraldo, D, Gandini, A (2016) Follow the algorithm: An exploratory investigation of music on YouTube. Poetics 57: 117-123.
2. Bardakci, S. (2019). Exploring high school students' educational use of YouTube. The International Review of Research in Open and Distributed Learning, 20(2), 261-273.
3. Bohlin, G., Göransson, A., Höst, G. E., & Tibell, L. A. E. (2017). A conceptual characterization of online videos explaining natural selection. Science & Education, 26(7-9), 975-999.

4. Fleck, B. K. B., Beckman, L. M., Sterns, J. L., & Hussey, H. D. (2014). Youtube in the classroom: Helpful tips and student perceptions. Journal of Effective Teaching, 14(3), 21-37.